

O'ZBEKISTONDA GENDER VA KORRUPSIYA: tub o'zgarishlar sari

BMT Taraqqiyot dasturi va O'zbekiston Respublikasi Korruptsiyaga qarshi kurashish agentligining Yevropa Ittifoqi tomonidan moliyalashtiriladigan «O'zbekistonda korruptsiyaga qarshi milliy ekotizimni mustahkamlash» qo'shma loyihasi doirasida tayyorlangan.

1 Tadqiqot metodologiyasi

Xalqaro tajriba korruptsiyaning erkaklar va ayollarga turlicha ta'sir ko'rsatishini namoyon etadi. Aniqlanishicha, ayollar o'zlarining ijtimoiy roli, tizimli tengsizlik hamda resurslar va hokimiyat vakolatlaridan foydalanishdagi gender nomutanosibli sababli o'ziga xos va nomutanosib darajada katta qiyinchiliklarga duch keladi. Bu holat ayollarning ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy marginallashtirishini kuchaytiradi. Shuni inobatga olgan holda, ko'plab xalqaro tashkilotlar va hujjatlarda korruptsiyaga qarshi kurash siyosatini ishlab chiqishda gender zaifligini hisobga olish, jumladan, korruptsiyaning ayollarga nomutanosib ta'sirini tan olish zarurligi ta'kidlanadi. Aynan shu nuqtai nazardan, BMT Taraqqiyot dasturi, Yevropa Ittifoqi va O'zbekiston Respublikasi Korruptsiyaga qarshi kurashish agentligi ko'magida korruptsiyaning gender oqibatlarini aniqlash, gender yondashuvini korruptsiyaga qarshi kurash kun tartibiga integratsiya qilishga ko'maklashish hamda O'zbekistonning inklyuziv va korruptsiyadan xoli jamiyat barpo etish borasidagi sa'y-harakatlarini mustahkamlashga qaratilgan tadqiqot o'tkazildi.

Hisobotni tayyorlashda xalqaro siyosiy hujjatlar, O'zbekistonning korruptsiyaga qarshi kurashish sohasidagi asosiy qonun hujjatlari tahlili hamda **539 nafar respondent** (268 nafar ayol va 271 nafar erkak) ishtirokida o'tkazilgan ijtimoiy tadqiqot natijalaridan olingan sifat va miqdor bo'yicha ma'lumotlardan foydalanildi. Shuningdek, Namangan, Surxondaryo, Samarqand, Sirdaryo, Toshkent viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasida 10 ta maqsadli guruh muhokamasi (ayollar va erkaklar uchun 5 tadan) o'tkazildi hamda Adliya vazirligi, Advokatlar palatasi, Ijtimoiy himoya milliy agentligi kabi muassasalarga maxsus so'rovnoma yuborildi.

2 Asosiy xulosalar

Tizimli islohotlar, gender va korruptsiya:

O'zbekiston korruptsiyaga qarshi islohotlarga tizimli tus berish, jumladan, milliy qonunchilikni takomillashtirish (huquqbuzarliklar to'g'risida xabar qiluvchi shaxslarni himoya qilish to'g'risidagi qonunni qabul qilish, jurnalistlarning huquqiy himoyasini kuchaytirish va h.k.), fuqarolik jamiyati institutlari, mustaqil ommaviy axborot vositalari, jamoatchilik nazoratini mustahkamlash borasida hali ko'p ishlarni amalga oshirishi lozim. Shu nuqtayi nazardan, gender stereotiplari tufayli kuchayadigan korruptsiyaning ayollar va erkaklarga turlicha ta'siri korruptsiyaga qarshi siyosatni ishlab chiqish va amalga oshirishda gender jihatlar hisobga olingan yondashuvni integratsiyalash zaruratini yuzaga keltirmoqda.


Korruptsiyaga qarshi kurashish va gender sohasidagi me'yoriy-huquqiy baza:

O'zbekistonning korruptsiyaga qarshi kurashishga oid qonunchilik bazasi umuman olganda xalqaro asosiy talablarga mos keladi va qisman gender masalalarini integratsiyalash standartlariga javob beradi. Unda genderni oid qoidalarning yo'qligi boshqa qonunlar (Mehnat kodeksi, "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi Qonun va h.k.) bilan qisman to'ldiriladi. Shu bilan birga, gender muammolarining korruptsiyaga qarshi kurashish bilan o'zaro bog'liqligini ko'rib chiqishda nafaqat gender tenglikni kafolatlovchi, balki korruptsiyaga qarshi siyosatni amalga oshirishda gender jihatlar hisobga olingan yondashuvni ham ta'minlovchi huquqiy asoslar zarur.

Yetakchilikning gender jihatlari va korruptsiya:

O'zbekiston jamiyatida ayollarning salohiyatli rahbar bo'lish qobiliyatiga oid gender stereotiplar keng tarqalgan. Xususan, ayollarning 41,4 foizi o'zlarini adolatli lider bo'la olaman deb hisoblasa, erkaklarning atigi 22,5 foizigina bu fikrga qo'shiladi. Erkaklarning 50,5 foizi va ayollarning 35,8 foizi esa bu fikrni qo'llab-quvvatlamaydi. Ayollarning yetakchilik qobiliyatiga shubha bilan qarash, asosan, ma'lumoti past, xususiy sektorda ishlaydigan va daromadi yuqori bo'lgan shaxslar orasida ko'proq kuzatiladi.


Agar ayollar
hukumatda yuqori
lavozimda ishlasa,
erkaklarga qaraganda
adolatliroq qarorlar
qabul qila
oladimi?




Gender va korrupsiyaga aralashish

Umuman olganda, fuqarolar korrupsiya bilan bog'liq vaziyat yaxshilanib borayotganini his qilmoqda va buni xizmat ko'rsatish sohasiga raqamli texnologiyalar joriy etilayotgani bilan bog'lamoqda. Respondentlarning qariyb 53,8 foizi korrupsiyaga duch kelmaganini bildirgan. Qolgan 46,2 foiz so'rov ishtirokchisining 30,2 foizi o'z jinsining korrupsiyaga aralashishiga hech qanday ta'sir qilmaganiga ishonch bildirgan bo'lsa, atigi 9,3 foizi buning aksini ta'kidlagan.


Agar sizni qachondir korrupsiya holatiga majbur qilishgan bo'lsa, sizningcha, bunga jinsingiz ta'sir ko'rsatganmi?



O'zbekistondagi ayrim an'anaviy me'yorlar (suyunchi, tanish-bilishchilik, dabdabali marosimlar) korrupsiyaning tarqalishiga qanday ta'sir ko'rsatadi?



O'zbekistonda korrupsiyaning qaysi shakllari keng tarqalgan?




An'anaviy xulq-atvor me'yori va korrupsiya

Jamiyatning O'zbekistonda korrupsiyaning eng keng tarqalgan shakllari haqidagi tasavvurlari an'anaviy xulq-atvor me'yori ta'sirida shakllangan. Ayollar va erkaklar deyarli bir xil javob bergan: Respondentlarning 42,5 foizi korrupsiyaning eng keng tarqalgan shakli — mansabdor shaxs tomonidan pul yoki sovg'alar olish (suyunchi kabi) deb hisoblasa, 30,8 foizi qarindoshlar yoki do'stlarning manfaatlarini ilgari surish (tanish-bilishchilik kabi) deb biladi. Respondentlarning qariyb 70 foizi "suyunchi", "tanish-bilishchilik", dabdabali marosimlar o'tkazish kabi an'anaviy xulq-atvor me'yori korrupsiyaning yoyilishiga zamin yaratadi, deb hisoblaydi. Bu fikrni eng ko'p 25–54 yoshdagi fuqarolar (72,2%) qo'llab-quvvatlaydi, bu esa mazkur me'yorlarning jamiyatda keng tarqalganidan dalolat beradi.

Iqtisodiy zaiflik, gender va korrupsiya

Tadqiqot natijalariga ko'ra, respondentlarning 36 foizi oylik daromadi 1 million so'mdan kam ekanligini bildirgan. Ularning qariyb 70 foizini ayollar tashkil etgan. Ma'lumotlar respondentlarning umumiy oylik daromadini o'zlar baholashi asosida shakllantirilgan. Biroq jamoatchilik korrupsiyaning aholi daromadlariga ta'sirini gender jihatdan betaraf deb hisoblaydi — respondentlarning yarmidan ko'pi (53,2%) korrupsiya erkaklar va ayollarga bir xil darajada salbiy ta'sir ko'rsatadi, deb biladi. Bundan tashqari, erkaklarning 42,8 foizi va ayollarning 16,8 foizi korrupsiyadan erkaklar ko'proq jabr ko'radi, degan fikrni bildirishgan. Shunga qaramay, respondentlarning aksariyati (78,7%) agar korrupsiya ayollarga ko'proq salbiy ta'sir ko'rsatsa, hukumat korrupsiyaga qarshi kurash choralarini amalga oshirishda buni inobatga olishi kerakligini ta'kidlagan.




Respondentlarning oylik daromadi bo'yicha gender taqsimoti


Jinsiy ta'magirlik

Jamiyatda ayollarning jinsiy ta'magirlik oldida zaif ekani tan olinadi: Respondentlarning 46,8 foizi ayollar jinsiy ta'magirlikdan yetarlicha himoyalangan, deb hisoblasa, 31,5 foizi bu fikrga qo'shilmaydi. Ayollarning 37,3 foizi va erkaklarning 29,2 foizi jinsiy ta'magirlik holati haqida xabar berish istagi tug'ilganda to'siqlarga duch kelishini ma'lum qilgan. Bunda gap uyat, jamiyatning holatni qoralashidan qo'rqish, bilim va huquqiy savodxonlik yetishmasligi kabi omillar haqida ketmoqda. Shu bilan birga, erkaklarning 41 foizi va ayollarning 35,4 foizi ruhiy to'siqlar mavjudligini inkor etishgan.

O'zbekistondagi ayollar jinsiy zo'ravonlik kabi korrupsiyaga nisbatan zaifmi?




O'zbekistondagi ayollar jinsiy zo'ravonlikdan himoya qilinganmi?



Gender va korrupsiyaga moyil sohalar


O'zbekistonda ayollar reproduktiv mehnat va farzand parvarishi bilan bog'liq muammolarni hal etishda korrupsiyaning sohalarga oid zaifligiga duch kelmoqda. So'rovda qatnashganlarning yarmidan ko'pi (54,4%) sog'liqni saqlashni ayollar korrupsiyaga eng moyil deb hisoblanadigan soha sifatida qayd etgan, keyingi o'rinda ta'lim sohasi (28,4%) turadi. Xavotirga sabab bo'layotgan boshqa sohalarda sud tizimi (13,5%), huquqni muhofaza qilish organlari (12,6%) va xususiy sektor (11,9%) kiritilgan.



Qaysi sohalarda ayollar korrupsiyadan ko'proq aziyat chekadi?

Xotin-qizlar huquq va imkoniyatlarini kengaytirish, gender va korrupsiya

Tadqiqot natijalariga ko'ra, ayollarning 50,4 foizi va erkaklarning 38 foizi xotin-qizlarning iqtisodiy imkoniyatlarini kuchaytirish korrupsiyaga qarshi kurashda samaraliroq yondashuv bo'lishiga ishonadi. Respondentlarning atigi 14 foizi parlamentda, 13 foizi esa hukumatdagi rahbarlik lavozimlarida ayollar vakilligini oshirish tarafdori ekanini bildirgan. Bu holat ayollarning iqtisodiy jihatdan yuqori darajada marginallashtirishiga uchraganidan dalolat beradi.



Fuqarolar nuqtayi nazaridan ustuvor chora-tadbirlar

Fuqarolarning fikricha, korrupsiyaga qarshi kurashning eng muhim choralarini quyidagilardir: davlat xizmatchilarini o'qitish va ularning malakasini oshirish (25,8%); qonunchilik va korrupsiyaga qarshi siyosatni samarali joriy etish (24,5%); davlat xizmatchilarini ko'rsatgan xizmatlari asosida ishga yollash va lavozimini oshirish (22,4%). Sifatli ma'lumotlarga asoslangan, gender jihatlar hisobga olingan tavsiyalar korrupsiyaning ayollarga nomutanosib ta'sirini tan olish, manzilli profilaktika choralarini joriy etish, korrupsiya to'g'risidagi qonunchilikka gender jihatlarini hisobga olgan holda o'zgartirishlar kiritish, korrupsiya va jinsiy ta'magirlik holatlari haqida xabar berish uchun xavfsiz tizimlarni yaratish kabilarni o'z ichiga oladi.



3 Tavsiyalar

Barcha tavsiyalar ikki blokda keltirilgan. **Birinchi blok** korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi milliy qonunchilikni Birlashgan Millatlar Tashkilotining Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi (UNCAC) koalitsiyasi huzuridagi Gender, inklyuzivlik va korrupsiya bo'yicha ishchi guruh, Xalqaro sudya ayollar assotsiatsiyasi, IHTT va boshqalar tomonidan shakllantirilgan gender xususiyatlarini hisobga olish bo'yicha xalqaro talablarga muvofiqlashtirish maqsadida takomillashtirish chora-tadbirlarini o'z ichiga oladi. Xususan, jinsiy ta'magirlik kabi korrupsiyaning genderni asoslangan shaklini jinoiylashtirishni nazarda tutgan holda, quyidagi qonun va kodekslarni tegishli qoidalar bilan to'ldirish taklif etiladi:

- “Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida”gi;
- “Normativ-huquqiy hujjatlarning va ular loyihalarining korrupsiyaga qarshi ekspertizasi to'g'risida”gi;
- “Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida”gi;
- “Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risida”gi;
- Jinoyat kodeksi;
- Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks.

Tavsiyalarning **ikkinchi bloki** korrupsiyaga qarshi kurashishga oid milliy qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlarni to'ldiradi va gender jihatlari va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha sa'y-harakatlarni yanada samarali birlashtirish uchun joriy holarni yanada hisobga olish va ustuvor yo'nalishlarni belgilash nuqtayi nazaridan institutlar uchun mumkin bo'lgan yo'nalishlarni taqdim etadi. Xususan, korrupsiyaga qarshi kurashish organlari va gender tenglik masalalari bilan shug'ullanuvchi muassasalar o'rtasida idoralararo hamkorlikni rivojlantirish zarur. Tavsiyalar, shuningdek, korrupsiyaga qarshi gender jihatlar hisobga olingan siyosatni ishlab chiqish, tegishli vakolatlarni shakllantirish va ayrim sohalarda (sog'liqni saqlash, ta'lim va boshqalar) jinsiy ta'magirlik, gender asosidagi zaiflik kabi holatlarni bartaraf etish uchun maqsadli choralar ko'rishni o'z ichiga oladi. Ushbu blokning barcha tavsiyalari quyidagi yo'nalishlar doirasida shakllantirilgan:

- gender jihatlarni hisobga olgan holda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi siyosat va qonunchilikni ishlab chiqish va amalga oshirish;
- korrupsiyaga qarshi huquqni qo'llash va axborot kanallarini mustahkamlash;
- an'anaviy me'yorning zararli ta'sirini bartaraf etish;
- jamiyatdagi gender me'yorlarini o'zgartirish;
- bilim va xabardorlik darajasini oshirish;
- xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish korrupsiyaga qarshi kurashish chorasi sifatida;
- Korrupsiyaning gender oqibatlarini bartaraf etishda har tomonlama jamoatchilik yondashuvini shakllantirish.